

FORMING MORAL CHARACTERS OF STUDENTS WITH THE MEDIA OF MUSIC

Shahida Rahmatullayevna Mahkamova

Head of the "Music Education" Department of the Faculty of Arts.

Chirchik State Pedagogical University

ABSTRACT

This article discusses the criteria and requirements for homework, homework assignments and their assessment in fine arts classes.

Keywords: imagination, skill, tool, aesthetic, pace, taste, client, tone.

MUSIQA VOSITASI YORDAMIDA O'QUVCHILARNING AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

Mahkamova Shohida Rahmatullayevna

San'atshunoslik fakulteti, "Musiqqa ta'limi" kafedrasining mudiri.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida uyga vazifalar, nazorat topshiriqlari va ularni baholash mezon hamda talablari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tasavvur, ko'nikma, vosita, estetika, sur'at, did, mijoz, ton.

Musiqqa (yunon tilida mousiche - muzalar san'ati) - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat.

Musiqqa insonning turli kayfiyatlari (masalan ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqqa shaxsning irodaviy sifatleri (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiati (mijoz)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqaning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari - Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari - Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi kabi tasavvuf arboblari Imom G'azoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual - muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda musiqiy ta'lim-tarbiya bo'yicha XX asrning 60-90 yillarda H.Nurmatov, F.Jo'raev, R.Qodirov, Q.Mamirov, S.Annamuratova, T.Tursunov, mustaqillik davrida O.Ibroximov, N.Toshtemirov, Q.Panjiev va boshqalar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlarda musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari, musiqiy faoliyat turlari, musiqqa ta'limida qo'llaniladigan qator an'anaviy usullar yoritilgan bo'lib, bunda musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari - musiqqa o'qituvchisining jiddiy kasbiy tayyorgarligi o'quvchi shaxsiga

hamda uning musiqiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bog'liqligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ammo insonga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan musiqa ta'limining tarbiyaviy potensialini yuzaga chiqarishda faqatgina an'anaviy metodlar va umumdidaktik tamoyillarga tayanib ish olib borish zamon talabiga javob bermay qo'ydi.

Musiqa mazmuni - shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaktida inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqa, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (o'quv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va maxoratiga mos ravishda uzgartiriladi.

Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o'zlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo'ladi. Turli (kompozitorlik va og'zaki an'anadagi) uslublarda musiqa ijrochiligi ahamiyati turlichadir.

Professional yunalishdagi madaniyat tizimida musiqa ko'pincha badiiy asarlarni ijro etadigan san'atkorlar faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun musiqa ijrochi (sozanda, xonanda)larining aksariyati kompozitor va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida o'zlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida o'rgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar.

Musiqiy folklor tizimida musiqa namunalari omma ongining badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo'shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa ijrochiligi musiqa cholg'ulari hamda inson ovoz vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon bo'ladi.

Musiqa ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqa faoliyatining boshqa turlari - masalan, musiqa tarbiyasi, musiqa ta'limi, i.t. (Musiqashunoslik), musiqiy tanqid va boshqalar bilan birga jamiyat musiqa madaniyat tizimini tashkil etadi. Musiqa inson tafakkurining alohida mahsuli bo'lib, uning mazmun va mohiyati asar bilan bevosita muloqotda, ya'ni uning jaranglovchi ohangini o'zlashtirish jarayonidagina namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan zamonaviy musiqiy ta'lim metodikasi talaba yoshlarda musiqa va musiqa haqidagi bilimlar, yirik shakldagi musiqa asarlarini hissiy ongli idrok etish malakalarini shakllantirish, hissiy va musiqiy tajribalarni boyitish, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beruvchi bir qator metodlarni tavsiya etadi.

Bular musiqa haqida fikr yuritish metodi, muammoli metod, perspektiv va retrospektiv metod, musiqiy umumlashtiruv metodi, badiiy kontekst yaratish metodi, hayotiy assotsiatsiyalar metodi, polifonik metodlardir.

Musiqqa ta'limida musiqiy asarlarni o'rganish, idrok etishda yoshlar tomonidan musiqqa asarining faqat "matni" emas, balki musiqani yaratgan ijodkorni ko'ra olishni, musiqiy asarning ichki intonatsion xususiyatini his eta olishga turtki bo'luvchi metod va texnologiyalarni qo'llanishi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Bunda xususiy texnologiya darajasidagi pedagogik texnologiyalar musiqiy ta'lim prinsiplari talablariga mos keladi va ular talaba-yoshlarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy musiqiy tafakkurni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi ta'lim jarayoni da pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida talabalarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga turtki bo'ladi.

Shaxsning rivojlanishi qiyin murakkab jarayon, u ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orkali ro'yobga chiqadi. Inson xayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib o'zgarib boradi. Bolalik va o'smirlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy kamol topishi jarayonini tushunamiz.

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etilgan. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki. «Homo sapiens» - «aqli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darwin taobiri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va ellatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiysotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Umarova, A. I. Q. (2021). Mustaqillik yillarida o'zbek maqom san'ati taraqqiyotining ustivor tamoyillari (anana va zamonaviylik). *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1144-1147.
2. Умарова, А. (2021). Формирование познавательно-творческой активности у учащихся старших классов в процессе изучения творчества узбекских композиторов. *Scientific progress*, 1(5), 481-485.
3. Umarova, A. I., Miskino, S. Z. (2022). Cluster approach to the educational process in the organization of preschool education. *International Conference on Social and Humanitarian Research*, 1(2), 74-76.
4. Умарова, А. И., Мискинова, С. З., Кимсанов, О. (2022). Таълим технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамияти. *Ўзбекистонда fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar*, 2(9), 207-210.
5. Умарова, А. И., Абдалова, С. Р., Мискинова, С. З. (2022). Таълим оловчиларни етакчилик қобилиятларини аниқлаш ва таххислаш. *Ўзбекистонда fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar*, 2(9), 203-206.
6. Umarova, A. I. (2022). Bo'lajak musiqqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari. *Роль науки в развитии современного государства*, 1(1), 112-117.

7. Umarova, A. I. (2022). Children with development problems music education and correction rhythmic. *Экономика и социум*, 95(4), 507-510.
8. Умарова, А. И. Қ. (2022). Ривожланишида муаммоси бўлган болаларни музикий тарбияси ва коррекцион ритмика. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 1058-1065.
9. Umarova, A., & Nazarova, S. (2021). O'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda musiqa o'qitish. *Scientific progress*, 2(7), 1291-1294.
10. Умарова, А. И., & Татаева, Д. А. (2021). Реализация межпредметных связей. Использование музыки в образовательном процессе. Преподавание биологии. *Экономика и социум*, (7), 503-506.
11. Umarova, A. I., Davladiyarova, S. (2021). Formation of cognitive and creative activity in students of the senior classes in the process of studying the creativity of Uzbek composers. the importance of singing to develop speech fluid in logopedic rhythmic activities. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, 3(13), 692-696.
12. Тригулова, А. Х., & Умарова, А. (2020). Формирование познавательно-творческой активности у учащихся старших классов в процессе изучения творчества узбекских композиторов. *Актуальные проблемы искусства: история, теория, методика*. 5(15), 270-273.
13. Умарова, А. И. (2019). Хореография в развитие творческих способностей школьников. *Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў*, 2(5), 175-185.
14. Kimsanov, O. I. (2021). Formation of musical abilities among students of music schools. *Экономика и социум*, 83(4), 1-5.
15. Тригулова, А. Х., Кимсанов, О. (2021). Музыкальные способности и их значение в процессе обучения учащихся музыкальных школ. *Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim-tarbiyaning roli*, 2(4), 50-53.
16. Kimsanov, O. (2021). Developing musical skills in the process of studying large-scale works in art school students. *Science and Education*, 2(12), 597-601.
17. Trigulova, A. K., & Kimsanov, O. (2021). Musical sense of hearing and methods of its development in the process of piano performance. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1002-1004.
18. Kimsanov, O. I. (2022). O'quvchilarni musiqa darslarida ma'naviy va axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari. *Современные исследования в психологии и педагогике*, 1(1), 240-245.
19. Miskinova, S. Z. Q. (2021). Botir zokirov ijodi va o'zbek estradasi taraqqiyoti masalalari. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1178-1181.
20. Miskinova, S. Z. Q. (2022). Bolalarda cholg'u musiqa ijrochiligini rivojlantirish. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 1066-1071.
21. Miskinova, S. Z. (2022). Musiqa nazariyasi va uning tarixidan o'quvchilarga boshlang'ich bilim berish ahamiyati va mazmuni. *Роль науки в развитии современного государства*, 2(1), 118-123.
22. Miskinova, S. Z. (2022). Bolalarda cholg'u musiqa ijrochiligini rivojlantirish 2. Musiqa san'ati sohasida fanlarning o'qitilishining ilmiy-metodik asoslari, 2(2), 45-51.
23. Miskinova, S. Z. (2022). Development in children of instrumental musicing. *Экономика и социум*, 98(5), 126-129.